

PUDRAT SHARTNOMASI № 22

21 Iyul 2022 Yil

Paxtaobod tumani

Ushbu pudrat shartnomasi «Buyurtmachi» deb ataluvchi Paxtaobod tuman MAKTABGACHA TA'LIM BO'LIMI uning nomidan nizom asosida ish olib boruvchi rahbari **S.Abdullayeva** bir tomondan va «Pudratchi» deb ataluvchi «OOO ASL MUXAMMAD 3»MCHJ uning nomidan Nizom asosida ish olib boruvchi rahbari **Raxmonov Azizbek** ikkinchi tomondan isitish tizimlarini joriy ta'mirlash ishlariga doir pudrat shartnomasini tuzdilar ushbu xaqida:

1. Shartnomaning mavzusi

1.1. «Pudratchi» mazkur shartnoma shartlariga muvofiq «Buyurtmachi» ning Paxtaobod tuman maktabgacha ta'limi bo'limi tasarrufidagi 12-maktabgacha ta'lim binosini defektniy akt va smeta xujjatlariga hamda 19.07.2022 yil kungi № 22110012121231 lotga asosan isitish tizimini joriy ta'mirlash ishlarini bajarib beradi.

2. Shartnomaning bahosi va hisob-kitob tartibi

2.1. Bajarilishi lozim bo'lgan ishlar «Buyurtmachi» tomonidan tasdiqlangan loyixa smeta asosida to'liq bajaradi va pudrat ishlarining umumiy qiymati **40 556 000** (Qiriq million besh yuz ellik olti ming) so'mni tashkil etib ta'mirlash ishlarini 30 kun mobaynida sifatli qilib bajarib beradi.

2.2. Bajariladigan ishlar qiymati uzil kesil hisoblanib, faqatgina ishlar hajmi buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganidan va fors major holatlari sabab bo'lganida qayta ko'rib chiqilib, tomonlar o'rtasida qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

2.3. Shartnoma tomonlar o'rtasida imzolanib, tegishli G'aznachilik bo'limidan ro'yxatga olingandan so'ng 5 bank ish kunida «Buyurtmachi» bajariladigan ishlar umumiy qiymatining 30 foizini **12 166 800** (On ikki million bir yuz oltmish olti ming sakkiz yuz) so'mni, oldindan avans tariqasida «Pudratchi»ning hisob raqamiga o'tkazib beradi.

2.4. Bajarilgan ishlar uchun to'lovlarning qolgan 70 foizi, ya'ni **28 389 200** (Yigirma sakkiz million uch yuz sakson toqqiz ming ikki yuz) so'mni «Pudratchi» tomonidan bajarilgan ishlar dalolatnomasi (F-3) asosida o'tkazib beradi.

2.5. «Buyurtmachi» oxirgi to'lovni «Pudratchi» tomonidan ish to'liq bajarib topshirilib, qabul qilish – topshirish dalolatnomasi (F-3) va bajarilgan ishlar qiymatlari to'g'risidagi ma'lumotnomalar asosida o'tkazib beradi.

2.6. Bajarilgan ishlar uchun to'lovlar «Buyurtmachi» tomonidan pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3. Tomonlarning huquq va majburiyatlari.

3.1. «Pudratchi»ning majburiyatlari

Shartnoma imzolanganidan so'ng ish bajarilgan obektni «Buyurtmachi»dan dalolatnomaga (F-2) asosan qabul qilib oladi. Mazkur shartnomada ilova qilinadigan loyiha smeta xujjatiga muvofiq birinchi avans to'lovi amalga oshirilgandan boshlab 5 kun muddat ichida ishlarni

bajarishga kirishadi. Barcha ishlarni tasdiqlangan smeta xujjatlariga muvofiq mazkur shartnomada nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda o'zining kuchlari bilan bajarish xamda «Buyurtmachi»ga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshiradi.

3.2. «Pudratchi»ning huquqlari

Bajarib berilgan ish uchun oldindan avans haq to'lanishi va ishni bajarib topshirgandan so'ng to'la hajmda xisob-kitob qilinishini talab qilish;

Bajarib berilgan ishni qabul qilib olish asossiz ravishda rad etilishi natijasida yetkazilgan zararni qoplashini talab qilish;

3.3. «Buyurtmachi» ning majburiyatlari

Tasdiqlangan smeta bo'yicha bajarilgan ishlarni qabul qilib olish;

Bajarilgan ishlar uchun o'z vaqtida haq to'lash;

3.4. «Buyurtmachi»ning huquqlari

«Pudratchi»dan amaldagi davlat standartlariga va boshqa me'yoriy xujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

Kamchiliklarni bepul bartaraf etilishi yoki kamchiliklarni boshqa shaxs tomonidan to'g'rilanishi xarajatlarini qoplanishini talab qilish;

«Pudratchi»dan shartnomada ko'rsatilgan ishlarni qabul qilish kommissiyasi ishtirokida smeta hujjatlari asosida ishni sifatli bajargan holda qabul qilib olish;

«Pudratchi» tomonidan ishlatiladigan materiallar va asbob uskunalarni shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini nazorat qilish:

4. Tomonlarning javobgarligi.

O'zbekiston Respublikasining xo'jalik yurituvchi subyektlarni faoliyatni shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risidagi qonun hujjatlariga asosan belgilanadi.

4.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatini bajarmasa yoki zarur darajada bajarmasa majburiyatni bajarmagan tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni to'laydi;

4.2. «Pudratchi» ob'ektini o'z vaqtida topirishmaganligi uchun «Buyurtmachi»ga har bir kechiktirilgan kun uchun shartnoma majburiyatlari bajarilmagan qismining 0.5 foiz miqdorida penya to'laydi. To'lanadigan jarima summasi bajarilmagan majburiyatlar bahosining 50 foizidan oshmasligi kerak.

4.3. Aniqlangan nuqson va kamchiliklar «Pudratchi» tomonidan o'z vaqtida bartaraf qilinmasa «Buyurtmachi» to'lovlari to'xtatiladi. Lozim darajada bajarilmagan ishlarning 20 foizi miqdorida «Pudratchi» jarima to'laydi.

4.4. Bajarilgan ishlar uchun «Buyurtmachi» tomonidan o'z vaqtida haq to'lanmasa, har bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0.4 foizi miqdorida penya to'laydi. To'lanadigan jarimaning umumiy summasi kechiktirilgan to'lovlarning 50 foiz miqdoridan ortmasligi kerak.

4.5. To'lanadigan jarimalar shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni ikkinchi tarafga ana shu majburiyatlarini bajarmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplash javobgarligidan ozod etmaydi.

5. Fors major holatlar.

5.1. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va bu xolatlar shartnoma shartlarini bajarilishiga bevosita ta'sir etsa tomonlarning javobgarlikdan ozod etilishi Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

6. Shartnomani o'zgartirish, bekor qilish va nizolarni hal qilish tartibi

6.1. Mazkur shartnoma belgilangan shaklda tomonlarning o'zaro kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin.

6.2. Mazkur shartnoma bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizo va kelishmovchiliklar o'zaro muhokama yo'li bilan hal etiladi. Agarda o'zaro muhokama yo'li bilan hal etish imkoni bo'lmasa Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Iqtisod sudi orqali hal etiladi.

7. Shartnomaning amal qilish muddati

7.1. Shartnoma tomonlar muhri bilan imzolanib, xududiy G'aznachilik bo'limidan ro'yxatga olingan kundan kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

7.2. Shartnoma 2 nusxada tuzilib, ikkala nusxasi ham huquqiy jihatdan teng kuchli hisoblanadi.

8. Tomonlarning rekvizitlari

«Pudratchi»

«Buyurtmachi»

Nomi: «OOO ASL
MUXAMMAD»M.Ch.J
Manzili: Oltinkol tumani saroy-2 MFY
hududi
Bank nomi: UZSKB Andijon shaxar
bunyodkor bolimi
X/r: 20208000605277034001

Nomi: Paxtaobod tuman Maktabgacha ta'lim
bo'limi
Manzili: Paxtaobod tuman A.Temur
ko'chasi
SHXR:100022860032327091100251029
STIR (INN):305 157 124

MFO: 00076

XXTK (OKONX): 92400

STIR (INN): 307716320

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi
G'aznachiligi


XXTK (OKONX):

X/R:2340 2000 3001 0000 1010

INN:201122919 MFO:00014

Banki: Markaziy bank XQQM

Raxbar:  Raxmonov

Raxbar:  S. Abdullayeva

M.O'.

M.O'.

Yuridik ahamiyatga ega hujjatlarning qonun hujjatlariga muvofiqligi to'g'risida huquqiy hulosa

№ EK01550106

- 1.Loyihaning turi **Shartnoma**
- 2.Loyihaning nomi **“Pudrat shartnomasi”**

Ushbu pudrat shartnomasi «Buyurtmachi» deb ataluvchi Paxtaobod tuman MAKTABGACHA TA'LIM BO'LIMI uning nomidan nizom asosida ish olib boruvchi rahbari **S.Abdullayeva** bir tomondan va «Pudratchi» deb ataluvchi «OOO ASL MUXAMMAD 3»MCHJ uning nomidan Nizom asosida ish olib boruvchi rahbari **Raxmonov Azizbek** ikkinchi tomondan isitish tizimlarini joriy ta'mirlash ishlariga doir pudrat shartnomasini tuzdilar ushbu xaqida:

Shartnomaning mavzusi

«Pudratchi» mazkur shartnoma shartlariga muvofiq «Buyurtmachi» ning Paxtabod tuman maktabgacha ta'limi bo'limi tasarrufidagi 12-maktabgacha ta'lim binosini defektniy akt va smeta xujjatlariga hamda 19.07.2022-yil kungi № 22110012121231 lotga asosan isitish tizimini joriy ta'mirlash ishlarini bajarib beradi.

Pudrat ishlarining umumiy qiymati **40 556 000** (Qiriq million besh yuz ellik olti ming) so'mni tashkil etadi.

Asos: O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi O'RQ-684-son “ Davlat xaridlari to'g'risida”gi Qonuni.

Shartnoma bo'yicha taraflarning javobgarligi me'yori va nizolarni hal etish tartibi qonunchilik talablariga mos keladi.

Paxtaobod tuman Maktabgacha ta'limi bo'limi tomonidan 21.07.2022-yil.

22.07.2022-yil.

Paxtaobod tuman adliya bo'limi
yuridik xizmat ko'rsatish markazi
bosh yuriskonsulti:



L.A.Mirdosova